

## GINEKALOGIYADA O'TKIR QORIN SINDROMI.

Beshariq Abu Ali ibn Sino nomidagi

jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi

**Nazirova Hilola Abdulatif qizi**

### ANNOTATSIYA

O'tkir qorin sindromi ginekologik amaliyotda tez-tez uchraydigan, shoshilinch tashxis va davolashni talab qiluvchi klinik holatlardan biridir. Ushbu sindrom turli etiologiyaga ega bo'lib, bachadon va uning qo'shimchalari kasalliklari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Maqolada ginekologiyada o'tkir qorin sindromining asosiy sabablari, klinik belgilari, tashxis qo'yish usullari va davolash tamoyillari yoritilgan. Shuningdek, o'tkir qorin sindromini boshqa jarrohlik kasalliklaridan farqlash masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

### ANNOTATION

This article analyzes acute abdomen syndrome in gynecology, its main etiological factors, pathophysiological mechanisms, clinical manifestations, and evidence-based emergency care principles. Special emphasis is placed on timely diagnosis and prevention of life-threatening complications.

**Keywords:** acute abdomen, gynecology, emergency care, ectopic pregnancy, ovarian apoplexy.

### АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается синдром острого живота в гинекологии, его основные этиологические факторы, патофизиологические механизмы, клинические проявления и научно обоснованные принципы неотложной помощи. Особое внимание уделено своевременной диагностике и профилактике жизнеугрожающих осложнений.

**Ключевые слова:** острый живот, гинекология, неотложная помощь, внематочная беременность, апоплексия яичника.

## **KIRISH**

O'tkir qorin sindromi (OQS) — qorin bo'shlig'ida to'satdan paydo bo'ladigan kuchli og'riq, umumiy holatning yomonlashuvi va hayot uchun xavfli asoratlar bilan kechuvchi holatlar majmuasidir. Ginekologiyada ushbu sindrom ko'pincha reproduktiv yoshdagi ayollarda uchraydi va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishni talab etadi. Vaqtida tashxis qo'yilmasligi og'ir asoratlar, bepustlik va hatto o'limga olib kelishi mumkin

## **ETIOLOGIYA VA PATOGENEZ**

Ginekologiyada OQS quyidagi asosiy sabablar bilan bog'liq:

Ektopik (bachadondan tashqari) homiladorlik — nay homiladorligining yorilishi qorin bo'shlig'iga qon ketishi bilan kechadi.

Tuxumdon apopleksiyasi — tuxumdon to'qimasining yorilishi va ichki qon ketish.

Tuxumdon kistasining burilishi yoki yorilishi — o'tkir og'riq va gemodinamik buzilishlar bilan namoyon bo'ladi.

O'tkir yallig'lanish kasalliklari — salpingooforit, tubo-ovarial abstsess.

Bachadon miomasi tugunining nekrozi yoki burilishi.

Ichki qon ketish, peritoneal ta'sirlanish va gemodinamik buzilishlar yuzaga keladi.

Endometrioza asoratlari

Septik abort

Bachadon miomasi tugunining nekrozi .

## **KLINIK BELGILARI**

— Qorin pastki qismida to'satdan paydo bo'ladigan kuchli og'riq

- Ko'ngil aynishi va qusish ko'ngil aynish
- Teri oqarishi, sovuq ter
- Taxikardiya va arterial bosimning pasayishi
- Qon ketish belgilari

Davosi

Yotoq rejimi

Vena ichiga infuziya (eritmalar)

Og'riq qoldiruvchi (faqat shifokor ko'rsatmasi bilan)

Gemodinamikani barqarorlashtirish

Jarrohlik davosi

Laparoskopiya yoki laparotomiya

Qon ketishini to'xtatish

Zararlangan to'qimani olib tashlash

Profilaktikasi

Ginekologga muntazam ko'rik

Jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalarni erta davolash

Rejasiz homiladorlikdan saqlanish

Abortlardan voz kechish

Hayz sikli buzilishlarida o'z vaqtida murojaat

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ayupov A.A., Axmedov B.Sh.

Akusherlik va ginekologiya. — Toshkent: Abu Ali ibn Sino nomidagi nashriyot, 2020.